BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12. Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BERDIYOROVA RAXIMA KARIMOVNA

INGLIZ TILIDA OKKAZIONAL FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UDK: 811.111'373.7

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Berdiyorova Raxima Karimovna
Ingliz tilida okkazional frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlar 3

Berdiyorova Rakhima Karimovna
Pragmatic Features of Occasional Phraseological Units in English Language 23

Бердиярова Рахима Каримовна
Прагматические особенности окказиональных фразеологизмов в английском языке.....41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 46

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12. Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BERDIYOROVA RAXIMA KARIMOVNA

INGLIZ TILIDA OKKAZIONAL FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Fil1966 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Astanova Gulnora Aminovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xajiyeva Feruza Melsovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Doniyeva Maysara Jamolovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12. Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «13» noyabr soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57- 27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1092 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «2» noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil «2» noyabr dagi 26-4 - raqamli reyestr bayonnomasi.)

O.M.Fayzulloyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M.R.Ochilova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

M.K.Baqoyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida badiiy asarlarning tili mualliflar tomonidan yangi leksik hosilalar yoki okkazional frazeologik birliklar ishlatilishining ko‘p sonligi sababli tadqiqotchilarning e’tiborini tortib kelmoqda. Mazkur jarayonda muallif so‘zi, ijod etishi va xususan, mualliflik okkazionalizmlari, okkazional frazeologik birliklarning til va nutq bilan o‘zaro munosabati bilan bog‘liq masalari tahlilini amalga oshirish zarurati paydo bo‘ldi. Shu asosda okkazionalizmlarning genezisi, tildagi obyektiv o‘rni, badiiy diskursda kontekst poetikasini ta’minlash va tagmatn hosil qilish kabi lisoniy-uslubiy funktsiyalarini lingvistik va ekstralingvistik nuqtai nazardan talqin qilish matn lingvistikasi, leksikografiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika sohalarida amal qilayotgan til va nutq qonuniyatlarini tizimli yondashuv asosida idrok qilish imkonini beradi.

Dunyo tilshunosligida okkazional birliklarning so‘z, ma’no, ibora, tovush birikmasi, sintaktik shakllanish sifatida tilshunoslar tomonidan leksik va so‘z yasalish darajasida o‘rganilib kelingangan. Shu bois, okkazionalizmlarning tilda leksik-semantik, milliy-madaniy, diskurs kengligida esa pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilish tilshunoslik sohasida ustuvorlik va dolzarblik kasb etdi. Zero, mazkur birliklarning pragmatik-kontekstual potentsialini aniqlash, interdiskursiv jihatlarini izohlash, okkazionalizmlarning lug‘atlarda berilish tizimini mukammalashtirishga, tarjima jarayonida asliyat va o‘girmaaro funktsional mutanosiblik, adekvatlikka erishish qonuniyatlarini belgilashga xizmat qiladi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlarida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilayotganiga qaramay, ingliz tilidagi mualliflik okkazional frazeologik birliklarning shakllanish va qo‘llanish xususiyatlari yetarlicha o‘rganilmagan. Xususan, ularning struktur-semantik, funksional hamda uslubiy-estetik jihatlarini tadqiq etish, badiiy matnni anglash va talqin qilishdagi ahamiyatini ochib berish dolzarb ilmiy masalalardan hisoblanadi. Shu bois zamonaviy ingliz tilida okkazional frazeologik birliklarning shakllanish usullari, lingvistik xususiyatlari va nutqdagi funksional imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizning yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonda “ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish”[1] masalalarining ustuvor strategik yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yilishi tilshunoslik sohasida ham ilmiy izlanishlar ko‘lami hamda ko‘rsatkichini yanada oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi. Xususan, zamonaviy ingliz tilidagi okkazional frazeologik birliklarning shakllanish va qo‘llanish usullari

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni / Xalq so‘zi, 8.02. 2017. 28 (6722) –son.

ko‘rib chiqish, lison va nutqdagi o‘rnini kontekstual-pragmatik jihatdan motivlashish asoslarini ochish, leksikografik manbalarini yaratish, diskursda qo‘llanishi bilan bog‘liq pragmatik belgilarini yoritish, okkazional frazeologik birliklar doirasida munozarali masalalarni muhokama qilish, madaniyatlararo muloqot muhitida unumli foydalanish, frazeologik birliklarning shakllanishini ta’minlovchi struktur-semantik va funksional belgilarini o‘rganish borasida ham istiqbolli tadqiqotlar olib borish dolzarb sanalmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g’risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy - ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligidan okkazional so‘zlar, okkazional frazeologik birliklar va frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlari to‘g‘risida samarali ishlar olib borilgan. Jumladan, okkazional tushunchasi ko‘plab tilshunos olimlarning ishlarida o‘z aksini topgan[2]. Zamonaviy

[2]Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М: УРСС: Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.; Агаронян, Инна Васильевна. Словообразование окказионализмов-существительных в эпистолярном наследии II-ой половины XIX - I четверти XX веков: диссертация ... кандидата филологических наук: 10.00.00. - Куйбышев, 1972. - 294 с.; Бабенко Н. Г.Окказиональное в художественном тексте. Структурно-семантический анализ: учеб. пособие / Н. Г. Бабенко. – Калининград: Изд-во КГУ,1997. – 84 с.; Ларцева Е. В., Гафурова Ю. Р.. К вопросу о комплексных окказиональных образованиях. © Ларцева Е. В., Гафурова Ю. Р., 2018. Казарина Е.Окказиональная лексика как проблема перевода. Выпускная квалификационная работа. Санкт-Петербург.2017. Муравьева Д.Д. Способы образования окказионализмов в современном английском языке на материале произведений Джо Несбо. БМИ. Екатеринбург, 2017. - С.6-13. Фельдман Н.И. Окказиональные слова и лексикография //Вопросы языкознания. – 1957. – №4. – С. 64-73. Ханпира Э.И. Окказиональные элементы в современной речи. // Стилистические исследования: сб. статей. М.: Изд-во Моск. унив-та, 1972. –С. 364-374. Поздеева Е.В. Окказиональное слово: восприятие и перевод: На материале произведений русскоязычных и англоязычных писателей: дис...канд. филол. наук. Пермь, 2002. – 203 с. Самохин И.С. Окказионализмы Андрея Вознесенского: опытсоздания онлайн-словаря// Молодой ученый. – 2013. – №12. –

tilshunoslikda okkazional frazeologik birliklarning qo‘llanishiga doir nazariy qarashlar ham qator lingvistlarning diqqatini tortgan. Masalan, A.F.Artemova, S.K.Bashiyeva, L.M.Boldireva, Yu.I.Jabayeva, A.V.Kunin, S.I.Petrova, T.N.Fedulenkova, R.A.Voronin, U.A.Safarova, A.E.Mamatov, N.L.Shadrin, M.Sh.Akbarov kabi olimlar turli xil doirada okkazional frazeologik birliklar haqida nazariy fikrlar va amaliy ishlar olib borgan[3].

Hozirgi vaqtda pragmatika tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda “pragmatika” va “pragmalingvistika” so‘zlari qo‘llanishining leksik, semantik va sintaktik xususiyatlari haqida ko‘plab ilmiy ishlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotimiz bevosita okkazional frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatiga bag‘ishlanganligi uchun biz, O.A.Agarkova, L.V.Putilina, Yu.D.Apresyan, V.G.Gak, Ch.Pirs, Yu.K.Melvil, L.P.Terenteva, Sh.S.Safarov, G‘.Q.Mirsanov, D.Sh.Islomov, M.U.Abdurahmanova[4] kabi tilshunos olimlarning bu sohadagi nazariy qarashlarini chuqur tahlil qilib, ularni o‘rgandik.

С. 877-880. Сафарова У.А. Структурно-семантические аспекты контаминации в современном французском языке. Автореферат диссертации доктора филологических наук (DSc).Ташкент, 2022. - С. 3-14.; Лопатин В.В. Рождение слова. Неологизмы и окказиональные образования. М.: Наука, 1973. – 152 с.; Лыков А.Г. Окказиональное слово как лексическая единица речи// Филологические науки. –1971. – № 5. – С. 70-78.; Поздеева Е.В. Окказиональное слово: восприятие и перевод: На материале произведений русскоязычных и англоязычных писателей: Дис...канд. филол. наук. Пермь, 2002. – 203 с. Ревзина О.Г. Поэтика окказионального слова. // Язык как творчество. СПб, 1996. – С. 34-41.; Земская Е.А. Окказиональные и потенциальные слова в русском словообразовании. // Актуальные проблемы русского словообразования. Самарканд: Самарк. гос. ун-т, 1972. Ч.1. – С. 19-28.; Самохин И.С. Окказионализмы Андрея Вознесенского: опытсоздания онлайн-словаря// Молодой ученый. – 2013. – №12. – С. 877-880.

[3] Артемова А.Ф. Фразеология английского языка и её прагматический потенциал. Спецкурс. Пятигорск, 1991.; Батурова-Н.И.Окказиональный фразеологизм как языковое явление- *Батурова Надежда Игоревна, аспирантка, ст. преподаватель, navorutab@gmail.com, Россия, Москва, Московская гуманитарно-техническая академия.* - аспирантка -УДК 811.111. Болдырева Л. М. Стилистические особенности функционирования фразеологизмов. // Дис. … канд. филол. наук. – Москва, 1967.; Башиева С.К. Стилистический компонент фразеологического значения // Автореф. дис. … д-ра филол. наук. Краснодар, 1995.; Жабаева Ю.И. Структурно-семантические и функциональные особенности окказионализмов В. Высоцкого: дис… канд. фил. наук. Саранск, 2010. – 225 с.; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Дубна: Феникс Плюс, 2005. 488 с.; Mamatov A.E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Toshkent, 1991. – 212 б.; Начисчионе А. С. О разграничении вклинивания и разрыва как самостоятельных стилистических приемов приокказиональном использовании фразеологических единиц в речи. // Контекстуальная семантика: Сб. Латвийского гос. ун-та им. П. Стучки. Рига, 1982. – С. 86-91.; Петрова С.И. Окказиональные фразеологизмы в немецкой художественной речи (структурно-семантическая и смысловая характеристики): дис. ... канд. филол. наук. М., 1984. 207 с.; Федуленкова Т.Н. и Воронин Р.А. Окказиональное преобразование фразеологических единиц как лингвистическое явление (о вкладе а. с. начисчионе в разработку проблемы). Вестник СВФУ, 2012, том 9, №3. – 126-130.; Шадрин Н.Л. Идентификация окказионально преобразованных фразеологических единиц. // Проблемы лексики и фразеологии. – Л., –1975. – С. 179-191.; Akbarov M.Sh. Fransuz tilida okkazional frazeologizmlarning stilistik xususiyatlari. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2023.

[4] Agarakova O.A., Putilina L.V. Pragmatics and Intonation of French Speech Etiquette. Bulletin of OGU No. 11 (160)/November 2013. – pp. 186-191. Abdurakhmanova M.U. Semantic and Pragmatic Study of Disease Names (Based on Uzbek, Russian, and English Languages). Philology, PhD dissertation abstract. – Andijan, 2023. – 8 pages. Apresyan Yu.D. Pragmatic Information for a Dictionary. // Pragmatics and Problems of Intensionality. Moscow, 1988. Hak V.G. Pragmatics, Usus, and Grammar of Speech. // Foreign Languages at School. – 1982. – No. 5. – pp. 17. Safarov Sh.S. Pragmalinguistics. – Uzbekistan National Encyclopedia. – Tashkent, 2000. – 300 pages. Islomov D.Sh. Discursive-Pragmatic Analysis of Phonostylistic Tools in French and Uzbek Languages. Philology, PhD dissertation abstract. – Bukhara, 2023. – p. 8. Melville Yu.K. Charles Peirce and Pragmatism. – Moscow: Moscow University Press, 1968. – pp. 9–17. Muhammad Hakimov. Basics of Uzbek Pragmalinguistics. – Tashkent: Akademnashr, 2013. Peirce C.P. The Foundations of Pragmatism / Translated from English, Preface by V.V. Kiryushenko, M.V. Kolopotina — St. Petersburg: Laboratory of Metaphysical Studies, Faculty of Philosophy, St. Petersburg State University; Aleteya, 2000. – 352 pages. G'. Mirsanov. Development of Pragmalinguistics in Uzbekistan. // Foreign

Ammo okkazional frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlari badiiy matnlar doirasida maxsus monografik tadqiqot sifatida etarlicha tadqiq etilmagan. Dissertatsiyani tayyorlash jarayonida yuqoridagi sanab o‘tilgan tilshunoslarning tadqiqotlari chuqur o‘rganildi, munosabat bildirildi va ularning nazariy qarashlaridan tadqiqotda foydalanildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi. Mazkur dissertatsiya Buxoro davlat universiteting ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq olib borilayotgan “Pragmalingvistika va tilshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Ingliz tilida okkazional frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat**:**

zamonaviy tilshunoslikda okkazional frazeologik birliklar va frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlarini nazariy tahlil qilish;

badiiy asarlarda okkazionalizmlarning asosiy turlarini ajratib ko‘rsatish va ularning qo‘llanish xususiyatini ochib berish;

kontekstdagi okkazional frazeologizmlarning semantik-pragmatik komponentlarini almashtirish xususiyatlarni aniqlash;

okkazional frazeologik birliklarni o‘zgartirishning asosiy stilistik usullarini aniqlash va kengaytirilgan metafora, so‘z birikmasi, frazeologika allyuziya / ishora / holatlarini ochib berish;

kontekstdagi frazeologik birliklarning asl shaklidagi okkazional o‘zgarishining asosiy turlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz tili badiiy matnlaridagi okkazional frazeologik birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz tilida okkazional frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda yalpi tanlash metodi, tahlil va sintez, lingvistik, komponent, distributiv, kontekstual, semantik-strukturaviy, lingvostilistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz tilida okkazional frazeologik birliklarning baholash, ekspressivlik, intensivlik, emotivlik va stilistik munosabatli turlari pragmatik jihatdan psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvokulturologik omillar ta’sirida voqelanishi isbotlangan;

ingliz badiiy kontekstida okkazional frazeologik birliklar kommunikativ-kontekstual vaziyatni hosil qilish, emotsional matnda ishlatilib, uning estetik ta’sirchanligini oshirish, so‘zlovchining ma’lum vaziyatga subyektiv bahosi va munosabatini ko‘rsatish kabi pragmatik funktsiyalarni bajarishi dalillangan;

Philology. No. 3, 2016. – pp. 76-83. Stolneiker R.S. Pragmatics. // New in Foreign Linguistics. Linguistic Pragmatics. Vol. XVI. Moscow, 1985. Terenteva L.P. Semantics and Pragmatics of Lexical Occasionalisms: Dissertation ... Candidate of Philological Sciences. – Moscow, 1983. – 249 pages. Formanovskaya N.I. Communicative-Pragmatic Aspects of Communication Units. – Moscow, 1998.

okkazional frazeologik birlik belgilangan pragmatik birlik sifatida ekspressivlikni hosil qilishda *metafora, giperbola (mubolag‘a), kinoya (metaforik va metonimik), antonomaziya, kalambur (so‘z o‘yini), oksyumoron* kabi leksik, *qiyoslash, ellipsis* kabi sintaktik, *alliteratsiya, taqlidiy so‘z, qofiya* va *ohang* kabi fonetik badiiy uslub vositalari ishtirokida namoyon bo‘lishi aniqlangan;

okkazional frazeologik birliklar shaxsiy-deyktik (*men– sen – u*) qo‘llanilishga qarab, o‘zlari yo‘naltirilgan obyektlarni xarakterlash va baholash; suhbatdoshning xulq-atvorini tartibga solish; mulohazalarga, fikrga, bahoga, adresatning tavsiflanayotgan obyekt munosabatiga bevosita ta’sir o‘tkazish; qayg‘udosh bo‘lish kabi kommunikativ-pragmatik munosabat hosilasi ekanligi asoslangan.

adqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz tilida gaplarning sintaktik tahliliga yangicha yondashuv orqali gapdagi sintaktik birliklarning o‘zaro aloqalari aniqlanib, okkazional frazeologik birliklarning gapdagi vazifalari ochib berilgan;

gap tarkibida okkazional frazeologik birliklar o‘rnida qo‘llangan komponentlarning boshqa komponentlar bilan sintaktik aloqa yordamida bog‘lanishiga ko‘ra komparativlikning gapdagi o‘rni aniqlanib, ular ingliz tili gap tarkibida aniqlovchi, fe’l o‘rnida kelishi turli sintaktik unsurlar vositasida ifodalangan;

okkazional frazeologik birliklar doirasida ifodalangan gaplarni komponentlarga ajratib tahlil qilish asosida ularning differensial sintaktik belgilari aniqlandi va okkazional sintaksema bazasida ifodalanuvchi differensial sintaktik-semantik belgilar tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalarning yalpi tanlash metodi, tahlil va sintez, lingvistik, komponent, distributiv, kontekstual, semantik-strukturaviy, lingvostilistik kabi usullar bilan asoslanganligi, nazariy g‘oyalar va ma’lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o'tkazilganligi hamda natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati unda hozirgi ingliz tilida okkazional birliklarni hosil qilish usullari tahlil qilinganligi, frazeologiya sohasidagi semantik okkazional frazeologizmlar turlarining mohiyati ochib berilganligi, frazeologik birliklarning chuqur semantikasini taqdim etish va uning modifikatsiyasi, o‘zgartirilgan frazeologik birliklarning nutqdagi faoliyati bilan bog‘liqligi asoslab berilganligi, natijalari frazeologik biriklarning pragmatik imkoniyatini o‘rganish bo‘yicha izlanish olib boruvchilar uchun muhim ma’lumotlar berishi va kelgusidagi tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy o‘quv yurtlari xorijiy filologiya fakultetlarida grammatika, leksikologiya, stilistika fanlari bo‘yich nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish, nazariy tilshunoslik, matn tilshunosligi va lingvomadaniyatshunoslik sohalariga oid maxsus seminarlarni tashkil qilish, yangi

ko‘rinishdagi o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv-uslubiy majmualar, lug‘atlar, ma’ruza matnlarini yaratish, bitiruv malakaviy ishi va dissertatsiya tadqiqotlarini bajarishda manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilida okkazional frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz tilida okkazional frazeologik birliklarning baholash, ekspressivlik, intensivlik, emotivlik va stilistik munosabatli turlari pragmatik jihatdan psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvokulturologik omillar ta’sirida voqelanishiga O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog’iston filialida 2017-2020 yillarda bajarilgan FZ-2016-09081165532 “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog’iston filialining 2024-yil 22-apreldagi №177-son ma’lumotnomasi). Natijada frazeologik birliklarning kontekstdagi okkasional o‘zgarishi keng tahlil qilinib, ingliz va o‘zbek tillari glossariylarini boyitishga xizmat qilgan;

ingliz badiiy kontekstida okkazional frazeologik birliklar kommunikativ-kontekstual vaziyatni hosil qilish, emotsional matnda ishlatilib, uning estetik ta’sirchanligini oshirish, so‘zlovchining ma’lum vaziyatga subyektiv bahosi va munosabatini ko‘rsatish kabi pragmatik funktsiyalarni bajarishiga oid nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018 yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+ CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy talim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli xorijiy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 30-avgustdagi №232/02-son ma‘lumotnomasi). Natijada ilmiy xulosalar loyiha ishining samarali amalga oshishiga xizmat qilgan;

okkazional frazeologik birlik belgilangan pragmatik birlik sifatida ekspressivlikni hosil qilishda *metafora, giperbola (mubolag‘a), kinoya (metaforik va metonimik), antonomaziya, kalambur (so‘z o‘yini), oksyumoron* kabi leksik, *qiyoslash, ellipsis* kabi sintaktik, *alliteratsiya, taqlidiy so‘z, qofiya* va *ohang* kabi fonetik badiiy uslub vositalari ishtirokida namoyon bo‘lishiga oid nazariy xulosalardan oid nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan I-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” mavzusidagi innovatsion ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 30-avgustdagi №226/02-sonli ma’lumotnomasi). Natijada erishilgan natijalar va ishlab chiqilgan tavsiyalar institutning o‘quv jarayoni va xalqaro loyihalarini amalga oshirish imkonini bergan;

okkazional frazeologik birliklar shaxsiy-deyktik (*men– sen – u*) qo‘llanilishga qarab, o‘zlari yo‘naltirilgan obyektlarni xarakterlash va baholash; suhbatdoshning

xulq-atvorini tartibga solish; mulohazalarga, fikrga, bahoga, adresatning tavsiflanayotgan obyekt munosabatiga bevosita ta’sir o‘tkazish; qayg‘udosh bo‘lish kabi kommunikativ-pragmatik munosabat hosilasi ekanligi bilan bog‘liq xulosa va natijalardan Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasi “Oltin voha” radiosining, “Ochiq muloqot”, “Shu kunning mavzusi” radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 21-noyabrdagi №17-05/230-son ma’lumotnomasi). Natijada tomoshabinlar hamda radio tinglovchilarning o‘zbek va ingliz tillarida okkazional frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlarini aniqlash va matnlarda frazeologik birlik yasalishi haqidagi tasavvurlari mukammallashtirilib, ko‘rsatuvning ilmiy-ommabopligini ta’minlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish e’lon qilingan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan, 7 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 145 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, metodlari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Zamonaviy tilshunoslikda okkazional frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlari va ularni tadqiq qilishning nazariy asoslari”** deb nomlangan. Mazkur bobda okkazionalizm tushunchasining qo‘llanishiga doir qarashlar, zamonaviy tilshunoslikda okkazional frazeologik birliklar o‘rni, qo‘llanilishi va pragmatik xususiyatlari haqida so‘z boradi.

Okkazionalizm (okkazional so‘z) atamasi birinchi bor N.I. Feldman tomonidan “Okkazional so‘zlar va leksikografiya” (1957) nomli maqolasida keltirilgan bo‘lib, mazkur lingvistik hodisa quyidagicha ta’riflangan: “O‘z joyida o‘rinli qo‘llanilgan maxsus so‘zlar kengayib boradigan kontekst bilan uzviy aloqaga kirisharkan, odatda, kontekstdan ajralib chiqqanda, ya’ni undan tashqarida qo‘llanilish imkoniyati cheklangan bo‘ladi. So‘zlarning manashu asosiy xususiyati ularni, tilga

kirgan neologizmlardan farqli ravishda, okkazional so‘zlar deb atashga imkon beradi”. [5]

U.A. Safarova okkazional so‘zlarning eng muhim o‘ziga xos 3 xususiyatlarini sakkizta semantik guruhga ajratib tahlil qilgan: 1.Okkazional so‘z muayyan tilning so‘z yasash imkoniyatlarini nutqda amalga oshirishdir, demak, oraliq so‘zni tavsiflovchi eng keng belgi uning nutqqa mansubligidir, chunki me’yoriy so‘zdan farqli o‘laroq, matnda tasodifiy so‘zning bo‘lishi shart emas. 2.Okkazional so‘zlarning xarakterli xususiyati ularning nonormativligidir, chunki har qanday okkazionalizm grammatik, derivativ, semantik me’yorlarning buzilishi natijasida paydo bo‘ladi. 3. Okkazional so‘zning eng muhim xususiyati uning bir martalik funksional qo‘llanilishidir .[6]

O.S. Axmanova “Lingvistik atamalar lug‘ati”da okkazionalizmni “hamma bilmaydigan, umum iste’molga to‘g‘ri kelmaydigan, individual uslubi bilan xarakterlanadigan, qo‘llanishning o‘ziga xos konteksti bilan bog‘liq hodisa”, deb ta’riflaydi[7]. Tadqiqotchi okkazionalizmni so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan konkret holat yoki kontekstda bir marta ishlatiladigan so‘z yoki ibora deya talqin qiladi[8].

Xulosa sifatida okkazionalizmga quyidagi ishchi ta’rifni berish mumkin: okkazionalizm – bu har qanday holatga nisbatan shakllangan va faqat ma’lum bir kontekstda ishlatiladigan muallif so‘zi. Okkazional birliklar bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular orasida me’yoriy bo‘lmaganlik, nutqqa tegishlilik, funksional bir martalik foydalanish (takrorlanmaslik), kontekstga bog‘liqlik, ifoda mavjudligi va individual mansublik kabilar kuzatiladi.

A. S.Nachischione frazeologik birliklar mavjudligining uchta asosiy shaklini ajratib ko‘rsatadi: bazaviy shakl (base form), hamma qabul qilgan qo‘llanish (core use) va okkazional stilistik qo‘llanish (instantial stylistic use)[9]. Frazeologik birliklarni okkazional stilistik qo‘llash deganda, A. S. Nachischione uning nutqda kamdan kam uchraydigan stilistik tus berilgan aktuallashuvini tushunadi, buning natijasida frazeologik birlikning kontekst bilan aniqlanadigan shakli va mazmunida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, deb ta’kidlaydi.

A.E.Mamatov okkazional frazeologik birliklarning mualliflilik jihatini quyidagich izohlaydi: “badiiy so‘z ustalari o‘z asarlarida tilda mavjud, kodifikatsiyalangan, turg‘un, barqaror, norma doirasidagi frazeologizmlarning strukturasini, ularning leksik tarkibini o‘zgartirib, anashu frazeologik birliklar ma’nosi asosida yangi okkazional frazeologik variantlar hosil qiladilar”.[10]

---

[5] Фельдман Н.И. Окказиональные слова и лексикография // Вопросы языкознания. — 1957. — № 4. — С. 64—73.

[6] Safarova U.A. Zamonaviy fransuz tilida kontaminatsiyaning struktur-semantik aspektlari: Filol. fanlari doktori ... disser. avtoref. 2022: 6-14.

[7] Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М: УРСС: Едиториал УРСС, 2004. – С. 284.

[8] Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М: УРСС: Едиториал УРСС, 2004. – С. 95.

[9] Naciscione A. Phraseological Units in LiteraryDiscourse: Implications for Teaching and Learning // CAUCE: Revista de Filologia y su Didactica. Sevilla, 2001. P. 53-67.

[10] Mamatov A.E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent, 1991. – 212 b.

Shunday qilib, frazeologizm shakllanishining asosiy fazalari uchga bo‘linadi: 1) frazeologik neologizm; 2) okkazional frazeologizm; 3) uzual (odatdagi) frazeologizm. Frazeologizmning shakllanish jarayonini “apple sauce” frazeologik birlik misolida qarab chiqamiz. P.G.Vudxauzning ayrim asarlarida frazeologik neologizm sifatida, ya’ni ma’lum kontekst uchun ilk marta ishlatilib paydo bo‘ladi, ammo uning bir necha asarlarda turli vaziyatlarda qator ishlatilish fakti uni okkazional frazeologizmlarga kiritish imkonini beradi.

“*I forget how the subject arose, but I remember Jeeves once saying that sleep knits up the ravelled sleave of care. Balm of hurt minds, he described it a.(...). Apple sauce, in my opinion. It seldom pans out that way with me, and it didn’t now”.*[11]

Ushbu misolda *apple sauce* frazeologik neologizmi “*safsata, bo‘lmag‘ur gap, bema’ni gap, bema’nigarchilik, arzimagan narsa, ish*” ma’nosiga ega. *Apple sause* frazeologizmi klassik leksikografik manbalarda uchramaydi, biroq Wiktionary internet manbasi P.G.Vudxauz asarlaridagi iqtiboslarga tayanib[12], uni “*nonsense*” ma’nosida qayd qiladi, ya’ni ushbu frazeologizm endi uzuallashuv bosqichida turibdi va til tizimiga kiradi. Qayta anglash natijasida frazeologizmlarda ma’lum nutqiy mazmun paydo bo‘ladi va nutqiy mazmun hosil qilish mexanizmlari asosan xilma-xil troplar: metaforalar, obrazli qiyoslash, metonimiyalar, perifrastik va evfemistik hosilalar, so‘z o‘yinlari, ikki ma’nolilikning qo‘llanilishiga asoslanganligi katta ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytishimiz mumkinki, okkazional frazeologizm – odatdagi (uzual) frazeologizmning shakllanish bosqichidir. Okkazional frazeologizm matn tuzilishining muhim vositasi hisoblanadi, chunki u nutq vositalarini tejab, ilgaridan ma’lum vaziyatni kamroq so‘zlar bilan ifodalab, fikrni sig‘imli bayon qilish imkonini beradi. Okkazional frazeologizm kontekstdan kelib chiqadi va unga tobe bo‘ladi, ammo keyingi har bir qo‘llanilishda tobelik darajasi kamayadi, shu sababli okkazional frazeologizm faqat nutqqa tegishli bo‘lib qolmay, balki potensial tarzda til tizimiga ham tegishlidir.

Ta’kidlash lozimki, oxirgi yillarda qator tilshunos olimlarimiz frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlariga katta qiziqish bilan qaramoqdalar. Frazeologik birliklarning yuqori pragmatik salohiyatga egaligini zamonaviy lingvistlar, birinchi navbatda, ularning obrazliligi va semantik tarkibida konnotatsiya ustunlik qilishi bilan bog‘laydilar [13].

Pragmalingvistikaga keng qamrovli tushuncha sifatida qaragan Y.D. Apresyan uning doirasida til birliklari (leksemalar, affikslar, grammatik va sintaktik konstruksiyalar) hamda so‘zlovchining ish-harakatga, xabar mazmuniga, adresatga munosabatini o‘rganish lozimligini ta’kidlaydi [14]. Zero, pragmatikaning tadqiqot doirasida muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo‘llash hamda

[11] Wodehouse P.G "Jeeves In The Offing" 2002 -200 pp.
[12] Свободная энциклопедия. Викисловар. 2012
[13]Алефиренко Н.Ф., Золотых Л.Г. Проблемы фразеологического значения и смысла (в аспекте межуровневого взаимодействия): моногр. Астрахань: Изд-во Астрах. гос. пед. ун-та, 2000. 220 с.
[14] Апресян Ю. Д. Прагматическая информация для толкового словаря. // Прагматика и проблемы интенсиональности. – М., 1988. – С. 10-22.

ushbu qo‘llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta’siri masalalari o‘rganiladi.

Dissertatsiyaning **“Ingliz tilida okkazional frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlari va ularning ifodalanish yo‘llari”** deb nomlangan ikkinchi bobida frazeologik birliklarning okkazional o‘zgarishida semantik-struktur va so‘z kiritish xususiyatlari, frazeologik birliklarning komponentlarni almashtirish usullari va ularning turlarini aniqlash kabi mavzular yoritilgan. Shuningdek, frazeologik birliklarda sintaktik strukturaning o‘zgarishi, qisqartirish va semantik o‘zakni saqlab qolish holatlari misollar asosida ochib berilgan.

Frazeologik birliklarning okkazional qayta o‘zgartirilishi matnning kommunikativ vazifasi va pragmatik yo‘nalishiga bog‘liq. Ular kommunikativ ta’sirni kuchaytirish uchun ishlatiladi. Tilshunoslikda bu jarayonni tavsiflash uchun “deformatsiya”, “transformatsiya”, “buzish”, “defrazeologizatsiya” kabi atamalar qo‘llaniladi.

Frazeologizm tarkibiga kiritilgan so‘z, so‘z birikmasi, ba’zida esa butun bir gap frazeologizmning okkazional chegaralarini kengaytirib, uning ma’nosini kuchaytirishi yoki susaytirishi mumkin[15]. Bunday holatlar ba’zida “fakultativ leksik parchalanish”[16] deb atalib, ular ham bir qator lingvistik xarakterdagi sabablar, jumladan, mulohazaning (fikrning) ma’noviy ehtiyojlari, uning semantik va pragmatik aniq bir maqsadga qaratilganligi orqali kelib chiqadi.

Frazeologik birliklarga so‘z kiritish mualliflar tomonidan uni yangilash, obrazni jonlantirish va hatto frazeologik birlikni bitta stilistik tonallikdan (emotsionallikdan) boshqasiga o‘tkazishda keng qo‘llaniladi. Bunday holatda matn tarkibidagi frazeologik birliklarga sifat va ravishlarning kiritilishi juda ko‘p kuzatildi. Masalan:

1-jadval

Frazeologik birliklarga so‘z kiritish

RAVISH	*“Well, one has got to make a start somewhere”, “she said. “On the whole I think that if Julia hasn’t gone <u>completely</u> off her rocker by now, I might start with her”.*	*go off one’s rocker - aqldan ozish, to‘g‘ri, mantiqiy fikr yuritmaslik, kirdi-chiqdi bo’lib qolish*	*completely – mutlaqo, tamomila, batamom, to‘la, to‘liq, to‘la-to‘kis, butunlay, batamom.*
SIFAT	*“You are annoyed, is it not so?” he asked anxiously, as we walked through the park.“Not at all”, I said coldly.“That is well. That lifts <u>a great</u> load from my mind ”*	*lift a load from smb.’s mind – qalbidan g‘amini ketkizmoq, tinchlantirmoq, yupatmoq, ovutmoq, taskin (orom) bermoq, xotirjam qilmoq.*	*great – katta, ulkan*

Matn tarkibidagi frazeologizmga kiritilgan *completely (batamom)* ravishi frazeologizmning (“ruhiy kasallikka yo‘liqish, aqldan ozish”, “esini yeb qo‘yish,

[15] Зуева В. И. Стилистическое средство разрушения устойчивых словосочетаний в произведениях английских и американских писателей // Уч. зап.МГПИИЯ им. М. Тореза.Т.30. – М,1964. – С. 29-35.

[16] Бершадская Ф. М. Формы употребления фразеологической единицы в речи: автореф. дис. ... канд. филол. наук. Л., 1972. 23 с.

jinni bo‘lib qolish”) salbiy bahosini kuchaytirish vazifasini bajaradi. Bunday kuchaytiruvchi vazifani biz quyidagi misollarda ham topamiz.

Entirely (butunlay) ravishining *to be in error (adashmoq, xato qilmoq)* frazeologizmiga kiritilishi obyekt butunlay nohaq ekanligini nafaqat ta’kidlaydi, balki suhbatdoshiga yana bir bor o‘zining ustunligini, o‘z tajribasini, bexato faoliyatini uqtirib o‘tish imkoniyatini beradi. O‘zi buni xohlamagan holda, u ham ijtimoiy mavqeyi, ham xizmat pog‘onasi, ham aqliy qobiliyatlari bo‘yicha pastda turgan suhbatdoshining ko‘ngliga botadigan gap aytadi.

“You were entirely in error”.

Japp sighed.

“I always thought it was the little gray cells of the brain. Don’t tell me the cells of your nose are equally superior to anyone else’s” [17].

You were entirely in error mulohazasining semantikasi, uning illokutiv kuchi javob nutq harakatini (perlokutsiya aktini) uyg‘otib, qabul qilayotganning fikrlariga va hislariga, ushbu holda – xafaligiga, ta’sir ko‘rsatadi.

Emotsional birliklarning intensifikatsiyasi quite, *only, pretty, completely, utterly* va boshqa ravishlarni, *too, too much* kabi kuchaytiruvchi yuklamalarni qo‘shish yo‘li bilan sodir bo‘ladi. Masalan:

“This is a great surprise... Did no one know about this marriage of yours?”

“No, we kept it quite dark. John didn’t like that rart of it much”[18]

to keep smth. dark – sir saqlamoq, biror narsani yashirmoq. Quite ravishi yetarlicha, ancha, xiyol ma’nolarida kuchaytiruvchi vazifasida qo‘llanilgan.

Komponentlarni almashtirish chog‘ida asosan frazeologizm ma’nosining konnotativ jihatini kuchaytirish (komponentlarni intensifikatsiyalovchi almashtirish), ma’noni konkretlashtirish (oydinlashtiruvchi almashtirish) yoki obrazni tiklash (regeneratsiya) yuz beradi. Frazeologik birlikka sifatning kiritilishi otli komponentni oydinlashtiradi va uning matndagi aktuallashuviga urg‘u beradi.

2- jadval

Komponentlarni almashtirishning 3 turga ajratilishi

Sinonimik almashtirish	*A motorcar went past the window. Ugly great lumbering thing, making all that racket. But there it was the country ratting to the dogs /Galsworthy J. The M of Pr./.*	*to go to the dogs —qulamoq, o‘pirilmoq; yomonlashish, tanazzulga yuz tutish; to rat – to desert one’s associates - sichqonning ini ming tanga bo‘lmoq .* *Ushbu misolda fe’lli “go” komponenti harakatning katta intensivligini ifodalaydigan sinonim “rat” bilan almashtirilgan.*
Antonimik almashtirish	*Algernon: If ever I get married I’ll certainly try to forget the fact. Jack: I have no doubt about that dear Algy. The Divorce Court was specially invented for people*	*Frazeologik birlik – marriages are made in heaven – nikohlar osmonda yuz beradi.* *Antonimik almashtirish natijasida “divorces are made in heaven”*

[17] A. Christie. Dead Man’s Mirror. p 136.

[18] A. Christie. Dead Man’s Mirror. p 78.

	whose memories are so curiously constituted. *Algernon: Oh. There is no use speculating on that subject. Divorces are made in heaven.*	*okkazional frazeologizmi hosil bo‘ldi.*
Frazeologik birliklarning komponentlarini ular bilan semantik bog`langan so`zlar bilan almashtirish	*He intended to take an opportunity this afternoon of speaking to Irene. A word in time saves nine / Glsw. The M of Pr./.*	*Frazeologik birlik – a stitch in time saves nine - maqol “vaqtida qilingan chokning bitta bahyasi to‘qqiztaga tatiydi”, nimaiki vaqtida qilinsa, keyinchalik ko‘p mehnatni tejab qoladi.*

Frazeologiyada qo‘llanilgan allyuziya[19] frazeologizm mulohazasida umuman yoki qisman qatnashsada, biror shamasi yoki atrofdagi matn orqali o‘zining implitsiatsiya qilingan ma’nosini xotiraga kelishiga sabab bo‘ladi va ushbu uzual frazeologizmga kiritilgan ekspressivlik va konnotatsiyalarni hosil qilishda ma’lum rol o‘ynaydi. Frazeologizmlarning “bo‘lak” shaklida ishlatilib, umumxalq tilidagi an’anaviy frazeologizm ruhini anglatishi allyuziya deb ataladi. Nutqda ba’zi frazeologizmlarning to‘liq shakli emas, xuddi metonimiyadagi singari ma’lum qismigina ishlatiladi. Masalan:

I have no patience with the modern neurotic girl who jazzes from morning till night, smokes like a chimney, and uses language which would make a Billings gate fish woman blush.[20]

to talk Billings gate –bozorchi xotinga o‘xshab so‘kinmoq.

Allyuziyalar ham frazeologizm sintaktik strukturasi leksik tarkibining hammasini yoki bir qismini saqlab qolgan holda o‘zgarishlarga, ham qisqartirishga, ya’ni frazeologizmning bir qismini ishlatishga asoslanishi mumkin. Allyuziyaning bu toifasi so‘zlovchining til tejamkorligiga intilishi bilan belgilanib, bunda so‘zlovchi atrofdagilar uni tushunishlariga ishonchi komil bo‘ladi. Ba’zida qisqartirish shu darajada kuchli bo‘ladiki, faqat mulohazaning semantik yadrosi saqlanib qoladi.[21]

Frazeologik birliklarda sintaktik strukturaning o‘zgarishi, qisqartirish va semantik o‘zakni saqlab qolish holatlarini quyidagi misollarda ko‘rib chiqamiz.

1) komparativ oborot nominativ yoki aksincha bo‘lib qolishi mumkin. Masalan: *Miss Howard nodded grimly.*

“True enough! Afraid I said some things to Emily she will not forget or forgive in a hurry. Do not mind if they have only sunk in a bit. Probably water off a duck’s back, though. I said right out. “You’re an old woman Emily and there’s no fool like an old fool...”[22]

[19]Nasirov A.A. Frazeologiyada zamonaviy yondashuvlar va konsepsiyalar**.**O‘quv-qo‘lanma. O‘zDJTU, Toshkent 2024. – 155 b.

[20] Christie A. The Murder on the Links London and Sydney, 1974. – 5 p.

[21]Frazeologik tadqiqotlarda frazeologik birlikning bunday qo'llanilish turi “reministsentsiya” (sal xotirlash, g'ira-sira eslash/ deyiladi /N. N. Amosova atamasi/.

[22] Christie A. The Mysterious Affair at Styles. – London, 1974. – 14 p.

Misoldagi *like watery off a duck's back* frazeologik birligi *suv yuqtirmaydi, hech narsa (gap) ta'sir qilmaydi, parvoyiga kelmaydi* degan ma'nolarni ifodalab, matnda qahramonga nisbatan surbet, beg'am inson tomonidan noxushliklar idrok qilinmasligi, uni xafa qilmasligi, g'ozdan suv sirpanib tushib ketgani kabi, undan ham tushib ketishi ma'nosida qo'llanilgan. Ekspressivlik ichki xususiyatning obrazli yaratilishi orqali amalga oshirilgan. Loqayd "terisi qalin" odamga so'zlovchi salbiy baho berib, bunday fe'l-atvorga ma'qullanmagan munosabatni ifodalaydi. Ko'rib chiqilayotgan frazeologizmga kiritilgan konnotatsiya odatda keltirilgan matnda saqlanib qoladi. Kuchaytirish *to sink in* ya'ni, *"ongiga yetib bormoq"* va "*suv yuqtirmaydi*, *hech narsa (gap) ta'sir qilmaydi, parvoyiga keltirmaydi; surbet, beg'am"*frazeologik oborotini qarama-qarshi qo'yish hisobiga sodir bo'ladi.

2) Keyingi misolda stilistik distributsiya buzilgan allyuziya kuzatiladi. Odatda, *Queen Ann is dead* frazeologizmi ancha ilgari ma'lum bo'lgan ma'lumotga javob hisoblanib, so'zlovchining suhbatdoshiga kinoyali munosabatini aks ettiradi. Keltirilgan misolda ekspressivlik obrazning shartli belgilarini qiyosiy oborot yordamida izohlash, *dead* haddan tashqari eskirgan komponentining ma'nosini kuchaytirish hisobiga amalga oshiriladi.

Pattison ... who believed that a University should exist for pure learning and research inevitably seems as dead as Queen Ann.

Qisqartirishni okkazional qayta hosil qilishlarning eng muakkab usullaridan deb hisoblash mumkin, chunki frazeologizmni chuqur tushunish, unda mulohaza qilinayotgan ma'nonini anglash asosida ancha murakkab psixo-semantik jarayonlar yotadi.

Frazeologik birliklar ma'lumotni kompressiya qilishning eng qudratli vositasi hisoblanadi. Bunga o'xshash allyuziyalar ko'pincha sarlavhalarda uchraydi, chunki, *qisqalik, lo'ndalik,* mazmunga boylik ularning o'ziga xos xususiyatlaridir. Masalan:

A.Kristining "Elephants can remember" romanidagi bobning nomi "*Long Shadows"* asli *Old sins have long shadows* frazeologik birlikdan olingan. G. Djeymsning *"The Golden Bowl"* nomli romani to'liq shakli "*the golden bowl is broken"*, Dj. Inglandning *"No Traveller Returns"* romani esa "*the Undiscovered country from whose bourne no traveller returns"* fraziologik birliklaridan yaratilgan.

